XALQ DEPUTATLARI UZUN TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 14-fevral VII-5-12-8-118-K/25 Uzun tumani

Uzun tuman mahalliy budjetining 2025-yil boshida shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1011-son Qonuniga va O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksiga muvofiq tuman budjetining joriy yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘laridan foydalanish bo‘yicha xalq deputatlari Uzun tuman Kengashi, **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasi “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1011-son Qonuniga muvofiq, mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish tartibi belgilab qo‘yilganligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimligi, Iqtisodiyot va moliya bo‘limi hamda mutasaddi tashkilotlarning tuman budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan mablag‘ ajratish yuzasidan kiritgan takliflari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman budjetining qo‘shimcha manbalari quyidagilardan tashkil topadi:

tuman budjetining har yil boshida aniqlanadigan erkin qoldiq mablag‘laridan;

tuman budjeti daromadlarining birinchi - uchinchi hisobot choraklari yakunlari bo‘yicha aniqlanadigan daromadlarni prognozdan oshirib bajarilishidan;

davlat aktivlarini xususiylashtirishdan tuman budjetiga tushgan mablag‘lardan;

davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tuman budjetiga tushgan tushumlardan;

O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksining 120-moddasi to‘rtinchi qismiga muvofiq tuman budjetidan ajratiladigan mablag‘lar kamaytirilishi natijasida bo‘shab qolgan mablag‘lardan.

4. Tuman budjetining joriy yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari 1 mlrd 691 mln 320 ming so‘mni tashkil etganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Tuman budjetining joriy yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi PQ-5072-sonli qaroriga asosan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga

(qo‘shimcha manbaning 30 foizi miqdorida) 507,4 mln. so‘m mablag‘ tuman hokimligiga,

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Kengashining 2022-yilning 8-apreldagi KQ-331-IV-sonli Qarorining 13-bandiga rioya etgan holda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-martdagi PQ-5020-sonli qarorining 7-bandida hamda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 11-martdagi 132-sonli qarorining 2-bandiga asosan tumanda tashkil etilgan “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari” jamg‘armalariga mablag‘ shakllantirish maqsadida tuman hokimining 2022-yil 14-iyuldagi 10-8-118-F/22-sonli farmoyishiga asosan “Yoshlar daftari” jamg‘armasiga 50,0 mln so‘m hamda “Ayollar daftari” jamg‘armasiga 50,0 mln so‘m mablag‘ tuman hokimligiga yo‘naltirilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Tuman hokimligining foydalaniladigan internet tarmog‘i xarajatlari uchun 32,0 mln. so‘m mablag‘ tuman hokimligiga;

Tuman hokimligida Edo-ijro orqali hujjatlar almashinuvi xizmatlari uchun 11,3 mln. so‘m mablag‘ tuman hokimligiga;

Tuman hokimligida E-qaror orqali hujjatlar almashinuvi xizmatlari uchun 42,0 mln. so‘m mablag‘ tuman hokimligiga;

Tuman hokimligida e-xat orqali hujjatlar almashinuvi xizmatlari uchun 1,0 mln so‘m mablag‘ tuman hokimligiga;

Tuman hokimligida SHRM-argos orqali hujjatlar almashinuvi xizmatlari uchun 12,0 mln so‘m mablag‘ tuman hokimligiga;

Mahalliy davlat hokimiyatlari organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni ishlab chiqish, kelishish va ro‘yxatdan o‘tkazishning yagona elektron tizimidan foydalanish E-Kengash elektron tizimidan foydalanish maqsadida 13,2 mln so‘m mablag‘ tuman hokimligiga;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevral kunidagi 2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-57-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida tuman hokimligida xarid qilingan qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarini o‘rnatishdan yuzaga kelgan qarzdorliklarni qoplash uchun 25,0 mln so‘m mablag‘ tuman hokimligiga;

Tuman miqyosida o‘tkaziladigan tadbirlarni ko‘tarinki ruxda o‘tkazish maqsadida tayyorlangan ko‘rgazmali bannerlar olish uchun yuzaga kelgan qarzdorliklarni qoplash uchun 30,0 mln so‘m mablag‘ tuman hokimligiga;

Tuman hokimligining moddiy texnik bazasini rivojlantirish maqsadida 56,720 mln so‘m mablag‘ tuman hokimligiga;

Tumanda o‘tkazilgan tadbirlardan yuzaga kelgan qarzdorliklarni bartaraf etish uchun 140,0 mln so‘m mablag‘ tuman hokimligiga;

Hukumatimiz yig‘ilishi bayonlarida berilgan topshiriqlar ijrosini ta’minlash maqsadida Uzun tuman Mudofaa bo‘limini ta’mirlash xarajatlaridan yuzaga kelgan qarzdorliklarni bartaraf etish uchun 200,0 mln so‘m mablag‘ tuman hokimligiga;

Tuman hokimligining foydalanuvchida bo‘lgan xizmat avtomashinalariga yoqilg‘i moylash mahsulotlari xarid qilish uchun 10,0 mln so‘m eski qarzdorliklar bartaraf etish uchun hamda 25,0 mln so‘m mablag‘ kelgusida yoqilg‘i moylash vositalari xarid qilish maqsadida tuman hokimligiga;

Tuman hokimligi tomonidan chiqarilgan xatlarni o‘z manziliga yetkazishni ta’minlash maqsadida maxsus pochta xarajatlari uchun 14,0 mln so‘m mablag‘ tuman hokimligiga;

Tuman hokimligi tomonidan sudga davo arizalari kiritish xarajatlari uchun 22,0 mln so‘m mablag‘ tuman hokimligiga;

tuman hokimligi tomonidan chiqarilgan xatlarni o‘z manziliga yetkazishni ta’minlash maqsadida pochta (marka va konvert xarid qilish) xarajatlari uchun 10,0 mln so‘m mablag‘ tuman hokimligiga;

Tegishli sud ajrimlari va Majburiy ijro byurosi Uzun tuman bo‘limining ijro varaqalariga asosan kreditor qarzdorliklarni qoplash xarajatlari uchun 100 mln. so‘m mablag‘ tuman hokimligiga;

Surxondaryo viloyati hokimligining 2024-yil 17-oktabrdagi 02-02/2117-sonli xatiga asosan tuman hokimligi tashkiliy nazorat bo‘limi guruh rahbarini rag‘batlantirish maqsadida 10,0 mln. so‘m tuman hokimligiga;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 9 fevraldagi №79-sonli qaroriga asosan 2024-yil yakuni bo‘yicha qaytarilmay qolingan suv solig‘idan to‘lov tuman Suv yetkazib berish xizmati Davlat muassasasiga 59,7 mln so‘m yo‘naltirilsin;

Tuman hokimligi tashabbusi bilan tumandagi “Yangi kuch” mahallasida tunu-kun 24/7 rejimda ishlaydigan ko‘chada olib borilayotgan obodonlashtirish ishlari uchun 140,0 mln. so‘m tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga yo‘naltirilsin;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi "O‘zbekiston Mahallalari uyushmasi faoliyatini yo‘lga qo‘yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida" PF-402-sonli qaroriga asosan tumandagi “Dehqon”, “Beshkappa”, “Obizarang”, “Madaniy turmush” va Bahoriston, mahallarni obodligini ta’minlash, shu jumladan, «Obod mahalla», «Obod ko‘cha», «Obod xonadon» mezonlarini joriy etish bo‘yicha olib berilgan beton ustunlar uchun yuzaga kelgan qarzdorliklarni bartaraf etish uchun 130,0 mln. so‘m mablag‘ tuman hokimligiga yo‘naltirilsin.

5. Tuman budjetining joriy yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari ilovaga muvofiq tumandagi zaruriy tadbirlarga tuman hokimligi va boshqa tashkilotlarni moddiy texnika bazasini mustahkamlash hamda ijtimoiy qo‘llab quvvatlash xarajatlariga yo‘naltirish tasdiqlansin.

6. Mahalliy budjetning qo‘shimcha shakllangan mablag‘lari favqulodda vaziyatlarda va shunga o‘xshash kechiktirib bo‘lmaydigan choralar ko‘rilishi talab etiladigan hollarda Kengashga keyin hisobot berish sharti bilan tuman hokimining qarori asosida yo‘naltirilishi mumkinligi belgilansin.

7. Tuman budjetining qo‘shimcha manbalari tuman budjeti hisobidan moliyalashtirilishi nazarda tutilmagan tashkilotlarni joriy saqlab turish xarajatlari uchun yo‘naltirilishiga yo‘l qo‘yilmasligi belgilansin.

8. Tuman budjetining joriy yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan yo‘naltirilgan mablag‘lar to‘g‘risida xalq deputatlari tuman Kengashiga chorak yakuni bilan tuman hokimi tomonidan hisobot berib borilishi belgilansin.

9. Tuman budjetining qo‘shimcha manbalaridan mablag‘ oluvchilarning rahbarlari ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanilishi, shuningdek ushbu mablag‘larni ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga shaxsan javobgar ekanligi belgilansin.

10. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Uzun tuman Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi A.Kamolovning zimmasiga yuklatilsin.

11. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Sessiya raisi SAFAROVA DILOROM SHAYDILOVNA

Xalq deputatlari Uzun tumani
Kengashining
2025-yil 14-fevraldagi
VII-5-12-8-118-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Uzun tuman mahalliy budjetining 2025-yil boshida shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risidagi tuman hokimining taklifi

so‘m hisobida

T-r	Tashkilot nomi	Mablag‘ yo‘naltirilishining maqsadi	Ajratiladigan mablag‘ miqdori, so‘mda
1	Uzun tuman hokimligiga	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi PQ-5072-sonli qaroriga asoan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga (qo‘shimcha manbaning 30 foizi miqdorida) mablag‘ yo‘naltirish	507 400 000
2	Uzun tuman hokimligiga	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-martdagi PQ-5020-sonli qarorining 7-bandida hamda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 11-mardagi 132-sonli qarorining 2-bandidaga asocan Ayollar daftari va Yoshlar daftari jamg‘armalariga mablag‘ yo‘naltirish	50 000 000
3	Uzun tuman hokimligiga		50 000 000
4	Uzun tuman hokimligiga	Tuman hokimligida foydalanilgan internet tarmog‘i hizmatlari uchun	32 000 000
5	Uzun tuman hokimligiga	Mahalliy davlat hokimiyatlari organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni ishlab chiqish, kelishish va ro‘yxatdan o‘tkazishning yagona yelektron tizimdan foydalanish maqsadida va EDO-ijro orqali xujjatlar almashinuvi xizmatlari uchun	11 300 000

6	Uzun tuman hokimligiga	Mahalliy davlat hokimiyatlari organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni ishlab chiqish, kelishish va ro‘yxatdan o‘tkazishning yagona yelektron tizimdan foydalanish maqsadida va E-qaror orqali xujjatlar almashinuvi xizmatlari uchun	42 000 000
7	Uzun tuman hokimligiga	Mahalliy davlat hokimiyatlari organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni ishlab chiqish, kelishish va ro‘yxatdan o‘tkazishning yagona yelektron tizimdan foydalanish maqsadida va E-Kengash orqali xujjatlar almashinuvi xizmatlari uchun	13 200 000
8	Uzun tuman hokimligiga	Mahalliy davlat hokimiyatlari organlari tomonidan vokand lovozimlar uchun tanlov elon qilish va HRM.Argos.uz orqali xujjatlar almashinuvi xizmatlari uchun	12 000 000
9	Uzun tuman hokimligiga	Mahalliy davlat hokimiyatlari organlari tomonidan vakand lovozimlar uchun tanlov e’lon qilish va E-xat orqali xujjatlar almashinuvi xizmatlari uchun	1 000 000
10	Uzun tuman hokimligiga	Tuman hokimligi moddiy-texnika bazasini mustahkamlash uchun (Konstavar, komyuter, prentir)	56 720 000
11	Uzun tuman xalq ta’limi bo‘limiga	Tuman hokimligi tomonidan chiqarilgan xatlarni o‘z manziliga yetkazishni ta’minlash maqsadida mahsus pochta xarajatlari uchun	14 000 000
12	Uzun tuman hokimligiga	Tuman hokimligi tomonidan chiqarilgan xatlarni o‘z manziliga yetkazishni ta’minlash maqsadida mahsus pochtaga marka va konvert sotib olish xarajatlari uchun	10 000 000
13	Uzun tuman hokimligiga	Tuman hokimligi xizmat avtomashinalariga yoqilg‘i maxsulotlari bilan ta’minlash uchun	35 000 000

15	Uzun tuman hokimligiga	Tuman hokimligi tomonidan sudga davo arizalari kiritish harajatlari uchun	22 000 000
16	Uzun tuman hokimligiga	Tuman miqyosida o‘tkaziladigan tadbirlarni ko‘tarinki ruhda o‘tkazish maqsadida tayorlangan ko‘ragazmali bannerlar olish uchun yuzaga kelgan qarzdorliklarni qoplash uchun	30 000 000
17	Uzun tuman hokimligiga	Tumanda o‘tkazilgan tadbirlardan yuzaga kelgan qarzdorliklarni bartaraf etish uchun	140 000 000
18	Obodonlashtirish boshqarmasiga	Tuman hokimligi tashabbusi bilan tumandagi “Yangi kuch” mahallasida tunu-kun 24/7 rejimda ishlaydigan ko‘chada olib borilayotgan obodonlashtirish ishlari uchun	140 000 000
19	Uzun tuman hokimligiga	Surxondaryo viloyati hokimligining 2024-yil 17-oktabrdagi 02-02/2117-sonli xatiga asosan tuman hokimligi tashkiliy nazorat bo‘limi guruh raxbarini rag‘batlantirish maqsadida	10 000 000
20	Uzun tuman hokimligiga	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16 fevral kunidagi "2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-57-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida tuman hokimligiga o‘rnatilgan qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni yuzaga kelgan qarzdorlikni to‘lash uchun	25 000 000
21	Uzun tuman hokimligiga	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 9-fevraldagi № 79-sonli qaroriga asosan 2024-yil yakuni bo‘yicha qaytarilmay qolingan suv solig‘idan to‘lov tuman Suv yetkazib berish xizmati Davlat muassasasiga	59 700 000

22	Uzun tuman hokimligiga	Tegishli sud ajrimlari va Majburiy ijro byurosi Uzun tuman bo‘limining ijro varaqalariga asosan kreditor qarzdorliklarni qoplash xarajatlari uchun	100 000 000
23	Uzun tuman hokimligiga	Hukumatimiz yig‘ilishi bayonlarida berilgan topshiriqlar ijrosini ta’minlash maqsadida Uzun tuman Mudofaa bo‘limini ta’mirlash harajatlaridan yuzaga kelgan qarzdorliklarni bartaraf etish uchun	200 000 000
24	Uzun tuman hokimligiga	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi "O‘zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyatini yo‘lga qo‘yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida" PF-402-sonli qaroriga asosan tumandagi Dehqon, Beshkappa, Obizarang, Madaniy turmush va Bahoriston, mahallarni obodligini ta’minlash, shu jumladan, «Obod mahalla», «Obod ko‘cha», «Obod xonadon» mezonlarini joriy etish bo‘yicha olib berilgan beton ustunlar uchun yuzaga kelgan qarzdorliklarni bartaraf etish uchun	130 000 000
Jami:		**xxx**	**1 691 320 000**